

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2021 yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobilij o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 7 319 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 486 taga yoki 51,4 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6 874 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 309 taga yoki 50,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 189 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 74 taga yoki 28,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 20 993 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 290 taga yoki 25,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 041 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 196 taga yoki 26,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 409 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 10,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 607 tani tashkil etib, ulardan 597 tasi yoki 98,3 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 74 taga yoki 14,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida viloyatimizda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)

	2020	2021
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	3
Sanoat	6	3
Qurilish	1	1
Savdo	-	1
Tashish va saqlash	-	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-
Axborot va aloqa	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-
Boshqa turlar	-	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

9



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fеврал holatiga ko'ra, birlikda)


	74-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	298-Sanoat
	37-Qurilish
	90-Savdo
	16-Tashish va saqlash
	18-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	4-Axborot va aloqa
	6-Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	47-Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	590	411	179
Samarqand sh	253	157	96
Kattaqo'rg'on sh	18	15	3
tumanlar:			
Oqdaryo	32	29	3
Bulung'ur	25	11	14
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	15	8	7
Kattaqo'rg'on	11	10	1
Qo'shrabot	22	11	11
Narpay	5	4	1
Payariq	16	10	6
Pastdarg'om	28	21	7
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	41	32	9
Nurobod	12	12	0
Urgut	51	45	6
Toyloq	13	9	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 253 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 42,9 %), Urgut 50 ta (8,6 %), Samarqand 41 ta (6,9 %), eng kamlari esa Narpay 5 ta (0,9 %), Paxtachi 9 ta (1,5 %), hamda Kattaqo'rg'on 11 ta (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,6 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,4 %), Payariq (5,4 %), Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur va Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar oyida, birlikda)

2021- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (28,4 %), Pastdarg'om (9,1 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,9 %), Ishtixon (5,4 %), Payariq (5,3 %), Kattaqo'rg'on, Jomboy, hamda Oqdaryo (4,5 %), Bulung'ur (4,0 %), Toyloq (3,8 %), Narpay (3,5 %), Nurobod (3,4 %), Paxtachi (3,2 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,1 %), va Qo'shrabot (1,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (36,1 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,7%), Pastdarg'om (7,1%), Kattaqo'rg'on (5,2 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,6 %), Oqdaryo (3,8 %), Jomboy (3,7 %), Bulung'ur va Ishtixon (3,5 %), Nurobod (3,4 %), Toyloq (3,0 %), Qo'shrabot va Paxtachi (2,1 %) hamda Narpay (1,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)



15



2021- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (21,7 %), Samarqand tumani (13,2 %), Pastdarg'om (11,6 %), Urgut (10,1 %), Jomboy (7,9 %), Payariq (7,4 %), Ishtixon (6,3 %), Narpay (5,3 %), Oqdaryo (4,2 %), Bulung'ur (3,7 %), Kattaqo'rg'on va Toyloq (2,6 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,1 %), va Nurobod (1,1 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtı-vaqtı bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmidagi kodni kiritning" (Enter code from document). A dropdown menu lists several options, with "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classification) highlighted. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42